INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

Ekologik muammolarning namoyon bo‘lish xususiyatlari.

Quldoshev Asliddin Tursunovich
Falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti
E-pochta: asliddinkuldoshev57@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-5121-6863

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik muammolarning shakllanishi, ularning kelib chiqish sabablari va namoyon bo‘lish xususiyatlari falsafiy-ontologik va kompleks ijtimoiy tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik inqiroz faqatgina tabiiy muammo emas, balki insonning tabiatga bo‘lgan manfaatchilik munosabati natijasida yuzaga kelgan ma’naviy-ekologik krizis sifatida baholanadi. Mintaqadagi transchegaraviy suv muammolari va Orol fojiasi inson va borliq o‘rtasidagi uyg‘unlikning buzilishi, global antropogen bosimning sivilizatsiyaviy oqibati sifatida konseptuallashtirilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, ekologik inqiroz, ekologik xavfsizlik, Orol dengizi, iqlim o‘zgarishi, suv resurslari, transchegaraviy daryolar, cho‘llanish, paxta yakkahokimligi, mintaqaviy hamkorlik.

Аннотация. В статье осуществлен комплексный социально-философский и онтологический анализ формирования экологических проблем в регионе Центральной Азии, причин их возникновения и особенностей проявления. В исследовании экологический кризис расценивается не просто как природная проблема, а как духовно-экологический кризис, возникший в результате прагматичного (потребительского) отношения человека к природе. Трансграничные водные проблемы в регионе и трагедия Аральского моря концептуализируются как нарушение гармонии между человеком и бытием, а также как цивилизационное следствие глобального антропогенного давления.

Ключевые слова: Центральная Азия, экологический кризис, экологическая безопасность, Аральское море, изменение климата, водные ресурсы, трансграничные реки, опустынивание, хлопковая монокультура, региональное сотрудничество.

Abstract. The article provides a comprehensive philosophical-ontological and integrated social analysis of the formation of environmental problems in the Central Asian region, their root causes, and the characteristics of their manifestation. The study regards the environmental crisis not merely as a natural problem, but as a spiritual-ecological crisis arising from human utilitarian (self-interested) attitudes toward nature. Transboundary water issues in the region and the Aral Sea tragedy are conceptualized as a disruption of harmony between human and existence, and as a civilizational consequence of global anthropogenic pressure.

Keywords: Central Asia, environmental crisis, ecological safety, Aral Sea, climate change, water resources, transboundary rivers, desertification, cotton monopoly, regional cooperation.

Kirish.

XXI asrda ekologik xavfsizlik xalqaro munosabatlar tizimidagi eng muhim masalalardan biriga aylandi. Tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va biologik xilma-xillikning qisqarishi insoniyat oldida turgan global chaqiriqlar sifatida baholanmoqda. Bugungi kunda ekologik muammolar nafaqat tabiatga, balki iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, demografik jarayonlar va davlatlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi mazkur muammolarning o‘ziga xos namoyon bo‘lish maydoni hisoblanadi. Mintaqaning dengiz va okeanlardan uzoq joylashganligi, quruq iqlimi, suv resurslarining

cheklanganligi va aholi sonining tez o‘sishi ekologik muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, XX asrda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat ham ekologik inqirozning chuqurlashishiga sabab bo‘ldi.

Ayniqsa, Orol dengizining qurishi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik fojialardan biri sifatida baholanadi. Bu holat mintaqadagi ekologik muammolarni chuqur o‘rganish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi.

Markaziy Osiyo ekologik muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faollashdi. Ayniqsa, Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq muammolar mahalliy va xalqaro tadqiqotchilar diqqat markaziga aylandi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan mintaqaning suv resurslari, cho‘llanish jarayonlari, yer resurslarining degradatsiyasi va ekologik xavfsizlik masalalari keng tadqiq qilingan. I.A. Karimov o‘z asarlarida ekologik xavfsizlikni milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida baholagan. Keyingi yillarda Sh.M. Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan mintaqaviy hamkorlik siyosati ekologik muammolarni hal qilishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Xalqaro tashkilotlar – BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, YuNEP va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi hisobotlarida ham Markaziy Osiyo ekologik xavflar yuqori bo‘lgan hudud sifatida baholangan. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ekologik inqirozning ob’ektiv va sub’ektiv omillarini yagona konseptual yondashuv asosida tahlil qilish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, geosiyosiy yondashuv va statistik ma’lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Mavzu muhokamasi.

Global darajada kuchaygan va davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga keskin ta’sir etayotgan, siyosiy birlikka to‘sqinlik qilayotgan ekologik inqiroz Markaziy Osiyo mintaqasida ham muammoli munosabatlarga ega. Bu munosabatlar mintaqada bitta yoki ikkita davlatning xatti-harakatlari samarasi bilan belgilanmaydi. Balki, mintaqada joylashgan davlatlarning va xalqaro hamjamiyatning umumiy maqsadlari asosida amalga oshadigan strategik hamkorlik natijasi bo‘lib, avvalo, ekologik inqirozning yuzaga kelishi xususiyatlarini tubdan o‘rganish va ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishni talab qiladi. Umuman olganda Markaziy Osiyoda ekologik muammolarning yuzaga kelishi **ob’ektiv va sub’ektiv** omillar bilan bog‘liq.

Ob’ektiv omillarga: birinchidan, **Markaziy Osiyo mintaqasi dengiz va okeanlardan ancha uzoq joylashgan bo‘lib**, Osiyo qit’asining markazi hisoblanadi. Shu sababli mintaqa hududida yog‘ingarchilik (yomg‘ir, qor) holati ancha kamroq. Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarning (Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari) XVII-XIX asrlarda sivilizatsion jarayonlarda Yevropa davlatlaridan orqada qolishi sabablarining biri sifatida dengiz savdo yo‘llaridan ajralib qolganligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, iqlimning quruqligi va issiqligidir. Mintaqa havosi boshqa hududlarga qaraganda ancha quruq, namlik miqdori oz, bahor mavsumi juda qisqa davom etadi. Ba’zi yillarda qurg‘oqchilik bo‘lganligi sabab ekologik tizimga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi (tez-tez, har 5-6 yilda takrorlanib turadi). Yoz oylari juda issiq. Yilning asosiy qismi issiq kunlardan iborat. Mintaqada iqlim monitoringi ma’lumotlari XX asr va XXI asr boshlarida isishning turg‘un ko‘tarilishini ko‘rsatmoqda, uning sur’ati o‘n yillik uchun 0,2 S dan oshadi, bu shimoliy yarimshar bo‘yicha isishning o‘rtacha sur’atidan 40 foizga ko‘pdir [3;202].

Uchinchidan, transchegaraviy daryolarning katta muzlik zaxiralariga ega emasligi. Mintaqada taranschegaraviy daryolar ikkita bo‘lib, bu daryolar mintaqa hududini suv bilan to‘la ta’minlashga qodir emas. Mayda daryolar ham yozning issiq kunlarida qurib qoladi. Mintaqa daryolari qish oylarida suv sig‘imi ko‘payib, yoz oylarida juda kamayib ketadi. Chunki mintaqada daryolarni ta’minlaydigan qor va muzlik zaxiralari o‘zini oqlamaydi. Masalan, iqlimning isishi oqibatida Orol dengizi havzasining daryolarini ta’minlaydigan qor-muzlik resurslarining maydoni tanazzulga

uchramoqda va qisqarmoqda. So‘nggi yarim asrda Markaziy Osiyo muzliklari uchdan bir qismdan ortiq qisqardi.

To‘rtinchidan, mintaqaning asosiy hududlari katta qum sahrolaridan iborat ekanligi. Markaziy Osiyoda Qoraqum, Ustyurt va Mang‘ishloq, Qizilqum, Orolbo‘yi Qoraqumi, Betpakdala, Mo‘yinqum cho‘llari joylashgan bo‘lib, hududining kattagina qismini tashkil etadi. Mintaqada namlikni qochiruvchi shamollarni tez-tez esib turishi iqlim tizimiga ancha ta’sirini o‘tkazadi.

Beshinchidan, boshqa mintaqalar ekologik tizimining ta’sir etishi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishi tabiatni muhofaza qilish global muammolarning oldingi o‘riniga chiqdi. Bundan tashqari, aynan shu muammo, bir tomondan, boshqa global muammolarni tutashtiruvchi chorrahasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, dunyoning turli mintaqalaridagi: iqtisodiy, siyosiy, demografik, etnografik vaziyatlarni keskinlashtiruvchi tahdidlarni kuchaytirib yuborishi mumkin bo‘lgan asosiy omilga aylanmoqda. Aynan bu muammodan Markaziy Osiyo mintaqasi ham xoli emas. Dunyoda ekologik muammolar inqirozli holatga aylanayotgani mintaqa ekologik tizimiga ham salbiy ta’sir etmoqda. Inson omilining tabiatga bo‘lgan ta’siri natijasida o‘tgan asrning 40-yillarida Afrika 28 foiz, Lotin Amerikasi 38 foiz o‘rmondan mahrum bo‘ldi, dunyo okeani tobora ifloslanmoqda. Yiliga 12-15 million tonna neft chiqindisi to‘kilib, 150 million km kv. suv yuzasi qora parda bilan qoplangan. Agar dunyo okeani 361 million km kv.dan iboratligi nazarda tutilsa, bu fojea ko‘lami nechog‘lik kattaligi ayon bo‘ladi. Yer yuzida o‘zlashtirilmagan 28 foiz maydon mavjud. Dunyo okeanidagi jonzotlar turi taxminan 500 taga kamayib ketdi. Yer yuzidagi barcha parranda va sut emizuvchilarning to‘rtdan bir qismi yo‘q bo‘lib ketish arafasida.

Ayrim mamlakatlardagi ekologik halokatlar shu davlatga nisbatan boshqa mamlakatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, Ukrainada Chernobil AES dagi avariya natijasida, 137 seziy radionukleidi bilan Belorussiyaning 23 foiz maydonidagi 3668 aholi punktida yashovchi 20 foiz aholi zaharlangan. Vaholanki, bu ko‘rsatkich Ukrainada 5 foiz maydondagi 1559 aholi punktiga zarar yetkazgan [3;195-196].

Bugun G‘arb sivilizatsiyasi Yer yuzi aholisining 10 foizini ham tashkil etmagani holda dunyo tabiiy zaxiralarining 40 foizini iste’mol qilmoqda va atmosferaga barcha chiqindilarning 60 foizini chiqarmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan kimyoviy qurollar (atom va yadro qurollari ham shular jumlasidan) ishlab chiqarish va sinovdan o‘tkazish jarayonlari ekologik tizimga salbiy ta’sirini oshirib yubormoqda. Kimyoviy qurollarni ishlab chiqarish: Buyuk Britaniyada o‘tgan asrning o‘rtalarida, Fransiyada – 70 yillarda, Rossiyada – 1987 yilda, AQShda – 1990 yilda taqiqlangandi. Ammo arsenallaridagi bu ommaviy qirg‘in qurollari hanuz chiqindilar sifatida saqlanib, utilizatsiya qilish muammosi yechimini topgan emas. Arktika ustidagi “Ozon tuynugi”ning maydoni rekord darajada, ya’ni 29 mln.km kv ga yetdi. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining atmosferaga chiqarayotgan gazlari (uglerod ikki oksidi) 25,7 mlrd. tonnani tashkil etadi. Shundan 25 foizi AQSh, 25 foizi Yevropa davlatlari, 14 foizi Xitoy (Xitoy so‘ngi besh yilda 21 foizga oshirib eng katta emitterga aylandi), 7 foizi Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi. Atmosferada metan gazi XX asrda ikki yarim marta ko‘paygan. Yuqorida keltirilgan ekologik xavflar o‘z-o‘zidan Markaziy Osiyo mintaqasiga salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda.

Oltinchidan, dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishi oqibatlari. Dunyoda iqlimning o‘zgarishi bilan suv bug‘lanishi – 10-15 foiz va o‘simliklar transpiratsiyasi o‘sish hisobiga 10-20 foiz suvning kamayishiga olib keladi. Bu suvning tiklanmas iste’moli 18 foizga ortishiga sabab bo‘ladi va suv resurslari tanqisligi ortadi. Haroratning 5-10 foizga ortishi va sovuq davr davomiyligi 5-15 kunga kamayishi bilan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekishning agroiqlimiy sharoitlari o‘zgaradi. 1988 yil Avstraliyada bo‘lib o‘tgan xalqaro iqlimshunoslar xulosalariga ko‘ra, 2030-2050 yillarda yer yuzi iqlimi 1,5-4,5 darajaga o‘zgarishi haqida bayonot berilgandi. Iqlim o‘zgarishi oqibatlar natijasida Yevropa bog‘larida daraxtlar o‘sish mavsumi 11 kunga uzaygan. Xalqaro ekspertlar guruhi fikricha, agar ahvol shunday davom etadigan bo‘lsa, yaqin 50 yil ichida harorat 2-4 Sga ortishi, 2100 yilga kelib Antaraktida va Grenlandiya muzliklarining faol erishi tufayli jahon okeani sathi 18-59 santimetrga ko‘tarilishi ba’zi orol davlatlari va sohilbo‘yi shaharlarining halokatli suv ostida qolishiga olib kelishi

mumkin [3;200-202]. Shu nuqtai nazardan dunyo miqyosida iqlimning o‘zgarishi Markaziy Osiyo mintaqasi ekologiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatayapti.

Ekologik muammolar XX asrning ikkinchi yarmidan yanada jadallasha bordi. Bunga sabab sobiq tuzum davrida uzoqni o‘ylamasdan qurilgan [1;570] siyosat mintaqani xom-ashyo bazasiga aylantirib qo‘yganligi bo‘ldi. Ekologik inqirozning bu ko‘rinishi sub’ektivlik asosida kechdi.

Sub’ektiv omillarga: birinchidan, o‘zlashtirilmagan yerlarning o‘zlashtirilishi. Ma’lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyoda sug‘orib dehqonchilik qilish mumkin bo‘lgan 58,1 million gektar yer mavjud, shundan, 8 million gektarga yaqin yerda dehqonchilik qilinmoqda. Ushbu yerlarning 4 million gektarga yaqini O‘zbekiston hududiga to‘g‘ri keladi. Sobiq Ittifoq davrida har yili yuz minglab gektar yerlarning o‘zlashtirilishi ekologik vaziyatni tobora keskinlashtirib yubordi. Zero, mavjud sahro va cho‘llar ham biosferaning umumiy ekologik muvozanatida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ularni o‘zlashtirishda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ekologik oqibatlarni har tomonlama o‘rganish taqozo etiladi. 1960-yillar boshida Amudaryo (1,6) va Sirdaryo (1,9) vohasida sug‘oriladigan maydon 3,5 million gektarni tashkil qilgan bo‘lsa, keyingi 20 yil ichida sug‘oriladigan maydonlar Amudaryo vohasida 2,4 Sirdaryo vohasida 2,6 million gektarga yetkazildi. Markaziy Osiyo respublikalari ichida faqat O‘zbekistonda paxta dalalari maydonlari rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1913 yildagi 441600 ga dan 1940 yilda 1 mln. ga gacha, 1960 yilda 1,4 mln. ga dan 1987 yilda 4,2 mln. ga gacha kengaydi [3;141]. Har yili 100 ming gektar yer o‘zlashtirilgan va unga ketadigan harajatlar bir yilgi paxta daromadidan qoplangan (faqat O‘zbekiston SSR paxtasidan). Umuman, Markaziy Osiyoda 1990 yillarni boshlarida sug‘oriladigan yerlar 3,5 million gektardan 8 million gektarga yetkazildi.

Ikkinchidan, sobiq Ittifoq davrida qishloq xo‘jaligi siyosatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi (suvga talabi yuqori “paxta yakkahokimligi”). Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligidan xo‘jasizlarcha foydalanish va ekologik inqirozning yuzaga kelishi Rossiya imperiyasi bosqini bilan bog‘liq bo‘lgan musibatdir. Ma’lumki, Rossiyaning yengil sanoati Markaziy Osiyoni bosib olgunga qadar, asosan, Amerikadan keltiriladigan paxta xom ashyosi hisobidan mahsulot ishlab chiqargan. Fuqarolar urushining xalq xo‘jaligini, xususan, paxta yetishtirish agrar sohasini izdan chiqarishi oqibatida 1860 yildan boshlab, Amerikada bir pud paxtaning bahosi sakkiz martaga – 4 rubldan 32 rublga oshgan va urush oxirlarida paxta eksporti umuman to‘xtatilgan.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligida suvni taqsimlash jarayonlarida tajribasizlik. Ma’lumki, Orol dengizi Markaziy Osiyo tabiatini belgilab turgan muhim bo‘g‘indir. Hozirgi kunda u yer yuzining ekologik muammosiga aylangan. Uning qurib borishi bilan keng maydonlar antropogen cho‘lga aylanib, ekologik vaziyat benihoya keskinlashib ketdi. Sobiq ittifoq olimlari, mutaxassislari Orol dengizining qurishi kelajakda qanday salbiy oqibatlarga olib borishini asoslab bera olmadilar, to‘g‘rirog‘i, ilmiy nazariyalarga, loyihalarga yuqori tashkilotlarni ishontira bilmadilar. Natijada, qishloq xo‘jaligida suvni oqibati o‘ylanmay sarflash, sug‘oriladigan maydonlarning intensiv kengaytirilishi Orol dengizi uchun ham, mintaqa uchun ham, ekologik fojianing boshlanish sabablaridan biri bo‘ldi. Ayniqsa, Qoraqum kanali qurilib Amudaryodan Turkmaniston olayotgan suvning 7 km kv ga ko‘payishi ekologik vaziyatni yanada mushkullashtirdi. Amudaryodan va Sirdaryodan sug‘orish uchun olinayotgan ortiqcha suvlarning oqavalarini hamda zax suvlarini Orol dengiziga oqizmasdan pastqamliklarga quyilishi natijasida katta-katta maydonlarda: Sariqamish, Aqchako‘l, Doutko‘l, Qorategin, Haydarko‘l, Arnasoy va boshqa suv havzalari paydo bo‘ldi, hamda, unumdor yerlar, yaylovlar suv ostida qolib ketdi. Ularning hajmi 60-70 yillardayoq 8-10 marta ko‘paydi, bug‘lanish va yerga singishdan ortgan va keyinchalik yana ham ortishi ko‘zda tutilmoqda. Birgina Arnasoy ko‘lining maydoni taxminan 350 ming ga, suv hajmi qariyb 42 km kubni tashkil qiladi. Agar bu suvlar oqilona ishlatilganda, ortiqchalari Orol dengiziga yo‘naltirilganda bugungi ayanchli muammolarga, balki, duchor bo‘lmagan bo‘lar edik. Mustaqillikka erishilgandan keyin Respublikamizda har gektarga sarflanadigan suv miqdori 1988 yildagi 15,1 ming m kubdan 2007 yilda 12,2 ming m kubgacha kamaytirilishga erishildi.

To‘rtinchidan, suv omborlari va GESlar qurilishining kuchayishi. Sobiq Ittifoq davrida paxta ekin maydonlarini kengaytirish hamda qishloq ho‘jaligi tizimini takomillashtirish siyosatini

kuchaytirish maqsadida sun'iy suv omborlar sonini ko'paytirildi. Natijada, Orol dengizini qurishi tezlashdi va ekologik tizimga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Norin daryosida To'xtag'ul suv ombori – 19,5, Sirdaryodagi Chordara – 5,2, Qayroq qum – 3,4, Amudaryodagi Tuyamo'yin – 7,8 km kub suvni to'play oladi. Umuman birgina O'zbekiston davlatining o'zida 51 ta suv omborlari mavjud. Markaziy Osiyoda Sobiq SSSR davrida 56 ta suv Ombori qurildi. Ularning to'liq loyihaviy hajmi 18,8 km kub, foydali hajmi 14,8 km kub ni tashkil qiladi. Eng kattalari Tuyamo'yin, Chorvoq, To'dako'l, Kattaqo'rg'on suv omborlaridir. Markaziy Osiyoda qurilgan suv omborlar suv hajmi Orol dengizi suv hajmini to'liq qoplaydi, biroq bu bo'linish tabiat tizimiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Umumiy holda tushunchaga ega bo'lish tizimini quyidagicha izohlash maqsadga muvofiq. Masalan, kishi boyligi bir million so'mni tashkil qilsa, uni beshga bo'lib cho'ntagiga joylashtirsa, boylik qiymati o'zgarmaydi. Ammo, tabiat ehsonini bo'lish katta fojeaga olib keladi.

Yuzaki qaraganda, sun'iy suv omborlari yaxshi iqtisodiy samara berayapti, lekin hamma vaqt ham qulay ekologik, qolaversa, sotsial vaziyatni vujudga keltirayotgani yo'q. Aksincha, atrof tumanlarda yer osti suvlari sathi ko'tarilishi yerlarning sho'rlanishiga olib kelmoqda. Bunday yerlarda hosildorlik keskin kamayib, hatto yaroqsiz holga kelayapti. Ularning meliorativ holatini yaxshilash ba'zan yangi yerlarni o'zlashtirishdan ham qimmatga tushmoqda. Masalan, Tuyamo'yin gidrouzelining qurilishi undan quyida joylashgan tumanlar yerlarining sho'rlanish darajasini oshirib yubordi. Bundan tashqari, bir vaqtlar sho'r ko'llarning qurib qolishidan hosil bo'lgan katta-katta tuz konlarini suv bosdi, ular asta-sekinlik bilan erib Amudaryo suvining sho'rlanish darajasini oshirib yubordi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoda ekologik muammolarning shakllanishi ob'ektiv va sub'ektiv omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan.

Geografik joylashuv, quruq iqlim va suv resurslarining cheklanganligi ekologik xavflarning tabiiy asosini tashkil etsa, sobiq Ittifoq davridagi paxta yakkahokimligi siyosati, suv resurslaridan noratsional foydalanish va aholi sonining o'sishi ekologik inqirozni chuqurlashtirgan.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish, Orolbo'yi hududlarini tiklash va mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
4. BMT Taraqqiyot dasturi hisobotlari.
5. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi materiallari.
6. Jahon bankining Markaziy Osiyo bo'yicha ekologik hisobotlari.
7. Asian Development Bank. Water Resources Management in Central Asia.
8. UNEP. Environmental Assessment of Central Asia.
9. Markaziy Osiyo ekologik xavfsizligi bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.
10. Iqlim o'zgarishi va suv resurslari bo'yicha xalqaro tadqiqotlar.